

ASTRAXAN XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Ro‘zmetova Guli Davronbek qizi

Urganch davlat universiteti Tarix yo‘nalishi 212-guruh magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Astraxon xonligining tashkil topishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, Rossiya tomonidan egallanishi va Buxoro xonligi bilan siyosiy aloqalari haqida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Oltin O‘rda, Mahmud, Ivan IV Grozniy, siyosiy jarayonlar, Rossiya bosqini.

Oltin O‘rda XIII asr boshida Chingizzon boshliq mo‘g‘ullar armiyasi g‘arbgan qarab yurish qildi. Egallangan Yevrosiyoning katta qismi, ya’ni Dashti Qipchoq va Xorazm yerlari uning katta o‘g‘li Jo‘jixonga mulk qilib berildi va u tarixga Jo‘ji ulusi nomi bilan kirdi. Shuningdek, tarixiy manbalarda “O‘rda”, “Katta ulus”, “Oltin O‘rda” nomlari bilan tilga ham olinadi. Ular orasida Oltin O‘rda nomi mashhur. Dastlabki davrlarda mo‘g‘ul imperiyasi tarkibidagi bir ulus sifatida mavjud bo‘lgan mazkur davlat XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil idora qilina boshlandi. Botuxon davrida davlat chegaralari g‘arbgan qarab kengaya bordi. Uning ukasi Berkaxon (1257-1266) zamonida esa islom diniga e’tibor qaratila boshlandi. Berkaxonning o‘zi esa islomni qabul qildi. XIV asrning 20-yillarida O‘zbekxon hukmronligi davrida islom dini O‘rdanining davlat diniga aylandi. Aynan O‘zbekxon va uning o‘g‘li Jonibekxonlar davrida O‘rda o‘z rivojlanishining cho‘qqisiga chiqdi. XIV asrning oxirlariga kelib, Amir Temuring To‘xtamishxonga bergan kuchli zarbasi oqibatida davlat zaiflashib bordi. XV asr o‘rtalariga kelib esa bir nechta qismga bo‘linib ketdi. Aslida, bo‘linishi 1420-yildan boshlandi. Sibir, O‘zbek, Qozon, Qozoq, Qrim, Ashtarkon, Nog‘ay xonliklari Oltin O‘rda o‘rnida tashkil topgan davlatlar bo‘lib hisoblanadi. Oltin O‘rdanining markaziy qismi esa Katta O‘rda nomi bilan XVI asr boshigacha mavjud bo‘ldi.

Astraxan Oltin O‘rda inqirozi natijasida vujudga kelgan davlat. Poytaxti Ashtarkon shahri (hozirgi Astraxon). XIV asrda Oltin O‘rda amiri Hoji Cherkas Ashtarkon shahrini bosib olib, uni alohida mulkka aylantirgan, taxminan 1459–1460 yillarda esa bu mulk uzil-kesil mustaqil bo‘lib olgan. Ashtarkon xonligi ning birinchi hukmdori – Katta O‘rda xoni Ahmadning birodari Mahmud bo‘lgan. 1460-yillarda birodari Ahmad bilan Katta O‘rda taxti uchun kurashda mag‘lub bo‘lib, Hojitarxon

shahriga qochadi. Shu yildan e'tiboran o'zini mustaqil hukmdor sifatida e'lon qiladi va Hojitarxon yoki Ashtarxon xonligiga asos soldi.

Xonlikning taxminan hududi: sharqda No'g'ay O'rdagacha, janubida Terek, g'arbda Kuban va Don daryolarigacha, shimolida Saroy shahrigacha. Aholisi turkiyzabon qabilalardan iborat bo'lib, asosan ko'chmanchi chorvachilik, qisman baliq ovlash, ovchilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ashtarxon yaqinidan tuz qazib olingan. 1556-yil Ashtarxon xonligi rus qo'shinlari tomonidan bosib olingan. 1556-yilning 2-iyul kuni Rossiya podshosi Ivan IV Grozniy Hojitarxon (Ashtarxon, Astraxan) xonligini egalladi va uning mavjudligiga nuqta qo'ydi. Xonlikning poytaxti hozirgi Astraxan shahridan 12 km uzoqlikda, Volga daryosining shimoliy qirg'og'ida joylashgan Hojitarxon shahri edi. Davlat nomi ham aynan shu shahar nomidan olingan. Ba'zi manbalarda davlat nomi "Ajdar xonligi" deb ham tilga olinadi. Xonlikning asosiy aholisi tatarlar va no'g'aylor bo'lган. Davlat hududi qolgan sobiq O'rda o'rnida tashkil topgan xonliklar hududiga nisbatan eng kichigi edi. G'arbdan Qrim xonligi, Shimoldan Katta O'rda, Sharqdan Nog'ay o'rdasi va janubi-sharq tarafdan Kaspiy dengizi bilan o'ralgan edi. G'arbdan Kuban va Don daryolari, sharqda Buzan daryosi xonlik chegaralarini belgilagan bo'lsa, Shimolda Perevoloka kengliklari va janubda Terek daryosi xonlik chegaralarini belgilab bergen edi. Xonlik hududining katta qismini tuzli cho'llar egallagan edi. Ivan III hukmronligi davrida Moskvadan Moskva, Oka va Volga daryolari orqali kemalar tuz uchun Astraxanga kelib turar edi. Aholining asosiy qismi Volga daryosi deltasida joylashgan edi va xonlik aholisi 15–20 ming atrofida edi. Xonlik qurolli kuchlari uch ming kishigacha yetar edi. Qrim va Nog'ay xonliklari Astraxan ustidan doimiy nazorat o'rnatish uchun bahs olib borardi. Taxtga esa Qrim xonlari tayinlagan xonlar o'tirar edi. Ashtarxon xonligi Xorazm, Buxoro va Qozon xonliklari bilan yaxshi savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan edi. Qosimxon hukmronligi davrida Moskva knyazligi bilan savdo aloqalari o'rnatildi. Moskva podshosi Ivan IV Grozniy Oltin O'rda o'rnida tashkil topgan davlatlarni birin-ketin egallahni maqsad qildi. Shu maqsad yo'lida 1552-yili Qozon xonligi egallandi. Qozon xonligi egallanganidan so'ng, buyuk knyaz uning janubdag'i qo'shnisi Ashtarxonni egallahni maqsad qildi. Xonlikning egallanishi unga butun Volga bo'yli ustidan nazoratni o'rnatish va Kaspiy dengiziga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatini taqdim etar edi. Yurish boshlashga bir bahona kerak edi xolos. Tez orada bunday bahona ham topildi. Astraxanga yuborilgan Moskva elchilari xon Yamg'urcha tarafidan hibsga olindi va bu narsa yurish boshlashga bahona bo'ldi. 1554-yilning bahorida Knyaz Pronskiy qo'mondonligida Volga bo'ylab qo'shin yuborildi. 29-iyun kuni Qora orolda rus qo'shinlari hamda Yamg'urcha o'rtasida jang bo'lib o'tdi va unda ruslarning qo'li baland keldi. Ruslar Astraxanni egalladi. Taxtga esa ruslarning ittifoqchisi bo'lgan taxt uchun kurashayotgan Darvesh Ali o'tkazildi hamda Rusga boj to'lash majburiyatini

oldi. Yamg'urcha esa Usmonli davlatiga qochib ketdi. Bu Darvesh Alining uchinchi bor taxtni egallashi edi. Ammo oradan ikki yil o'tgach Ivan IV Grozniy Ashtarxon xonligini butunlay tugatishga bel bog'ladi va iyun oyida yurish boshladi. Hojitarxon yaqinida yuz bergen jangda Darvesh Ali yengildi va Usmonliga qarab qochdi. 2-iyul kuni ruslar Astraxanni egalladi va shundan keyin xonlik tugatildi.

Astraxanning Rossiya tomonidan egallanganidan so'ng davlat o'zining mavjudligini to'xtatdi. Poytaxt Hojitarxon vayron etildi va undan 12 km quyiroqda yangi Astraxan shahriga asos solindi. Bir necha yuz yil davomida islom diyori bo'lib kelgan xonlik hududi provaslav diyoriga aylantirildi. Pravoslav ibodatxonalar qurildi va aholi provaslavlikka da'vat qilindi. Rossiya podsholigi Volga daryosi havzasi ustidan to'liq nazoratni qo'lga kiritdi va Kaspiy dengiziga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniga ega bo'ldi. Rossiya chegarasi va ta'siri Kavkazgacha yetib keldi. Ashtarxon xonliginining xonlari Chingizzonning katta o'g'li Jo'jixon nasli hisoblanadi. Uning o'g'li To'qay Temurning avlodlari bo'lib, Oltin O'rda o'rnida tashkil etilgan bir nechta xonliklarda hukmronlik qiladi. Shuningdek, Buxoro xonligiga ham. Gap shundaki, xonlikning inqirozga yuz tutib, Rossiya podsholigi tomonidan egallanishi ortidan Yormuhammadxon boshliq bir guruh sulola vakillari Buxoroga, Abdullaxon II huzuriga qochib boradi. Yormuhammadning o'g'li Jonimuhammad Abdullaxon II ning qiziga uylanadi. XVI asr oxirida Abdullaxon II ning vafotidan so'ng Shayboniylar sulolasidan davlatni boshqarishga layoqatli kishilar qolmagani sababli ulamolar Jonimuhhammadxonga taxtni egallahni taklif qiladi. Ammo Jonimuhammad o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. O'z navbatida Dinmuhammad ham safaviylar bilan jangda vafot etganidan so'ng taxtga 1599-yilda ukasi Boqimuhammad sulton o'tiradi. Shunday qilib, Buxoro xonligi tarixida ashtarxoniyalar yoki Joniylar sulolasi nomi bilan tanilgan sulola hukmronligi davri boshlanadi. Shuningdek, bu sulola To'qay temuriylar sulolasi deb ham ataladi. Boqimuhammad kam hukmronlik qilgan bo'lsa-da, zaiflashib qolgan Buxoroda o'tkazgan islohotlari davlatning keyinchalik mustahkamlanishiga olib keldi. Buxoroda hukm surgan ushbu sulolaning eng ko'zga ko'ringan hukmdorlari Imomqulixon (1611–1642), Abdulazizzon (1645–1681) va Subhonqulixonlardir (1681–1702). Sulola Abulfayzxon (1711–1747) hukmronligi davriga kelib inqirozga yuz tutadi.

Shunday qilib, Ashtarxon xonligining Rossiya podsholigi tomonidan tugatilishi Markaziy Osiyoda ham o'z ta'sirini ko'rsatdi va Buxoroda sulolalar almashinuviga olib keldi.

XULOSA

Oltin O'rda tarkibida bo'lgan Astraxan u parchalangach mustaqilligini tikladi. Endi davlat ham iqtisodiy jihatdan ham siyosiy jihatdan rivojlanib bordi. siyosiy aloqalarda ham aynan uning mavqeyi ko'tarila boshladi. Oltin O'rda tarkibidaligida

unga soliq to‘lab turgan edi. Keyinchalik Rossiya tomonidan Astraxan xonligi bosib olinadi. Ashtarxon xonligining Rossiya podsholigi tomonidan tugatilishi Markaziy Osiyoda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi va Buxoroda sulolalar almashinuviga olib keldi. Astraxan xonligi Buxoro xonligi bilan ham siyosiy va savdo aloqalarini olib brogan. Ayniqsa Abdullaxon II davrida ikkita xonlik o‘rtasidagi aloqalar yanada rivojlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Михаил Худяков. Очерки по истории Казанского ханства. Екатеринбург. 2012
2. В. Ф. Семёнов. Урта асрлар тарихи. Т. 1973.
3. Роза Курбангалиева. Урта асрлар тарихи.
4. <https://farbitis.ru/uz/historical-geography-of-russia/the-population-of-the-golden-horde-history-of-the-formation-of-the-golden-horde/>